

# Respublika oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi PQ-3655-son qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarini tabaqalashtirilgan holda:

oliy ta'lif muassasalari rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilarining - o'rtacha 25 foizga va stayer-o'qituvchi hamda fan doktori ilmiy darajasiga ega professor ish haqining miqdorlari o'rtasidagi tafovutni ikki baravargacha oshirish;

ilmiy-tadqiqot muassasalarining fundamental, amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish va innovatsiya ishlarida ishtirok etayotgan ilmiy xodimlarining - o'rtacha 25 foizga va stayer-tadqiqotchi hamda fan doktori ilmiy darajasiga va professor ilmiy unvoniga ega bosh ilmiy xodim ish haqining miqdorlari o'rtasidagi tafovutni ikki baravargacha oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab:

bazaviy doktoranturada ta'lif olayotgan shaxslarga - ilmiy unvon yoki ilmiy darajaga ega bo'limgan (2 yilgacha ilmiy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan) kichik ilmiy xodimning lavozim maoshi bazaviy miqdorlariga tenglashtirilgan stipendiyalar;

doktoranturada ta'lif olayotgan shaxslarga - fan nomzodi (yoki falsafa doktori (PhD) darajasiga va xorijiy davlatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ilmiy darajasiga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan yetakchi ilmiy xodimning lavozim maoshi bazaviy miqdorlariga tenglashtirilgan stipendiyalar to'lanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 1 iyulgacha:

oliy ta'lif muassasalarining rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilarini, shuningdek, boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlarini;

ilmiy-tadqiqot muassasalarining fundamental, amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnik dasturlari loyihibarini amalga oshirish va innovatsiya ishlarida ishtirok etayotgan ilmiy hamda rahbar xodimlarning bazaviy lavozim maoshlarini ushbu qaror talablaridan kelib chiqqan holda byudjet mablag'lari hisobidan qayta ko'rib chiqsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar Akademiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idolar bilan birgalikda ushbu qarorda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari - Moliya vaziri J.A. Qo'chkorov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Sh. Mirziyoev**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga  
SHARH**

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda ta'lif va ilm-fan tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli hamda izchil ishlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor vazifalari bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy va soha tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qodir bo'lgan yangi, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlash maqsadiga muvofiq ko'zlangan marralarga erishishning jadallashtirilishiga olib keldi.

Biroq, ayni vaqtida respublikaning oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalaridagi ilmiy hamda ilmiy-pedagogik kadrlarning salohiyati past darajada qolib ketmoqda. Ilmiy unvon yoki ilmiy darajaga ega bo'lgan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning mazkur jarayonlardagi ulushi tinimsiz pasayib borayapti. Ko'p hollarda bu vaziyat ilmiy xodimlar va professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy unvon yoki ilmiy darajalar olishga bo'lgan urinishi so'ngi yillar davomida moddiy manfaatdorlik oqibatida pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda, chunki stajerlar (ilmiy unvon va darajasiz) bilan professor-bosh ilmiy xodimlar (ilmiy unvon yoki darajaga ega) o'rtasidagi farq 50 foizdan ortmagan holda saqlanib qolinmoqda.

Ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining moddiy manfaatdorligini tubdan oshirish, shu jumladan, lavozimlar, ilmiy unvon va darajalar o'rtasidagi tabaqaqlashuvni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab 81 ta oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari va 136 ta ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari tarkibining barcha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari sezilarli oshirilishini nazarda tutadi: hammasi bo'lib 38 mingdan ortiq oliy ta'lif muassasalari (28,1 ming odam) va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari (8,0 ming odam), shuningdek 1,9 ming doktorantlar.

Bazaviy lavozim maoshlari tabaqaqlashtirilgan holda oshirilib, birinchi o'rinda ilmiy unvon yoki darajaga ega bo'lgan xodimlarga tadbiq etiladi. O'rtacha hisobda bazaviy lavozim maoshlari 25 foizga oshiriladi (stajerlarga 5% dan oliy ta'lif muassasalari professorlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining bosh ilmiy xodimlariga 38% gacha). Tabaqaqlashtirilgan bazaviy lavozim maoshlari oshirilishini nazarda tutgan holda egallab turgan lavozimidan, ilmiy unvon yoki darajasi borligidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda stajer bilan professor o'rtasida bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari 100 foizga, yoki ikki baravariga oshirilishi ko'zda tutiladi. Taklif qilinayotgan chora-tadbirlar oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilari tarkibi va ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlari o'z bilimlari va kasbiy ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishlari, ilmiy faoliyatlarini olib borishlari uchun rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqildi.

2018 yilning 1 sentyabridan boshlab bazaviy lavozim maoshlari oshirilishiga hammasi bo'lib 73,8 mlrd. so'm (38,4 - davlat byudjeti mablag'lari), ulardan 60,3 mlrd. so'm - oliy ta'lif muassasalari uchun (24,9 - mlrd. so'm davlat byudjeti mablag'lari), 11,3 mlrd. so'm - ilmiy-tadqiqot institutlari uchun, shuningdek, 2,2 mlrd. so'm oliy ta'lifdan keyingi ta'lif institutlari uchun qo'shimcha ajratilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga respublikaning oliy ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlariga mehnat haqi to'lashda qo'shimcha oylik harajatlari miqdori 18,4 mlrd. so'm bo'lib, jumladan, 9,6 mlrd. so'mi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Qaror bilan alohida belgilanganki, oliy ta'lifdan keyingi ta'lif institutlarida ta'lif olayotgan 1923 nafar tadqiqotchilarga ilmiy unvoni yoki darajasi bo'lмаган kichik ilmiy xodimning bazaviy lavozim maoshi miqdorlariga tenglashtirilib, 1,76 mln. so'm, (bazaviy doktorantura, 1669 nafar) hamda fan nomzodi ilmiy darajasi yoki unvoni bo'lgan yetakchi ilmiy xodimning bazaviy lavozim maoshi miqdorlariga teng bo'lgan -

2,2 mln. so'm (doktorantura, 254 nafar) miqdorida oshirilgan stipendiya (17 foiz-18 foizga oshiriladi) to'lanadi.

Mazkur qaror bilan fan doktori ilmiy darajasi bo'lgan professorlar mehnat haqi miqdori 38-44% ga oshiriladi va amaldagi 2,5 mln. so'm o'rniga 3,46 mln.so'm bo'ladi va shu bilan stajer-o'qituvchining mehnat haqi miqdori bilan 100 foizli tafovutni hosil qiladi (stajer maoshi - 1,73 mln.so'm).

Ilmiy-tadqiqot muassasalarida fan doktori darajasi yoki professor unvoniga ega bosh ilmiy xodimning mehnat haqi amaldagi 2,25 mln. so'm o'rniga 38 foizga oshirilib, 3,11 mln. so'mga yetadi, stajer-tadqiqotchi mehnat haqi miqdoridan 100 foizga yoki ikki baravarga oshiriladi (stajer maoshi - 1,55 mln. so'm.).

Qabul qilingan qaror respublikaning oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash yo'li orqali ta'lim sifatini va ilmiy faoliyatni oshirish masalalarini hal etish, oliy ta'lim muassasalari va akademik ilm-fanini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iste'dodli yosh olimlar va talabalarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalg qilishga yordam beradi.

Manba: <http://www.president.uz/uz/1622>